



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSION FAOLIYAT VA INVESTITSION XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MASALALARI

Ismailova Nasiba Komildjanovna

Toshkent moliya instituti "Moliya" kafedrası

ismailovank1275@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7800476>

### ARTICLE INFO

Received: 27<sup>th</sup> March 2023

Accepted: 04<sup>th</sup> April 2023

Online: 05<sup>th</sup> April 2023

### KEY WORDS

Moliyaviy globallashuv,  
investitsiyalar, xorijiy  
investitsiyalar, investitsion  
jozibadorlik, iqtisodiy xavfsizlik,  
investitsion xavfsizlik,  
investitsion xavfsizlik  
indikatorlari, davlatning tashqi  
qarzi, makroiqtisodiy  
barqarorlik, banklarning  
kapitallashuv darajasi, asosiy  
kapitalga kiritilgan  
investitsiyalar, ichki  
investitsiyalar, tashqi  
investitsiyalar, soliq yuki,  
investitsiyalar hajmi, inflyatsiya  
darajasi.

### ABSTRACT

*Mazkur maqola iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsion xavfsizlikni ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, investitsion xavfsizlik indikatorlari, investitsion xavfsizlik haqidagi iqtisodiy nazaariyalar, investitsion muhitni baholash mezonlari, hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasida investitsion xavfsizlikni ta'minlash masalalariga bag'ishlangan.*

### Kirish

O'zbekiston so'nggi yillarda jahon bozoriga kirish va rivojlangan mamlakatlar safidan o'rin olish maqsadida iqtisodiy islohotlarni yanada jadallashtirmoqda. Yurtimizga kapital oqimi va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ilg'or davlatlar tajribasidan foydalanish davr talabiga aylanmoqda. Investitsiya kiritishga oid qaror qabul qilish uchun zarur umumiy mezonlardan biri makro darajada investitsion muhit yaratish va sarmoya kiritilayotgan obyektning investitsion jozibadorligini oshirish hisoblanadi.

So'nggi yillarda barcha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda investitsion xavfsizlikni ta'minlash eng dolzarb muammolardan biriga aylangan. Buning sababi, iqtisodiyotni rivojlanishining asosiy omillaridan biri bu investitsiya hisoblanadi.

Iqtisodiyotni qayta qurish, modernizatsiyalash, sanoatning ustuvor tarmoqlarini yanada rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini o'stirish hamda barcha talablarga javob



beradigan tovarlarni ko'paytirishda investitsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdiki, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlar uchun investitsiyalarni jalb qilish muhim hisoblanmoqda.

Investitsiya ishlab chiqarishni kengaytirish va modernizatsiya qilishning eng asosiy yo'nalishi bo'lganligi sababli har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishi uning investitsiya siyosatiga bog'liqdir. Bu borada har bir davlat iqtisodiyotiga zamonaviy texnologiyalar va xorijiy kapitallarni jalb etish orqali iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishni o'z oldiga maqsad qilgan holda, investitsion siyosatni olib boradi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi**

Investitsiyalar va investitsion xavfsizlik tushunchasi alohida kategoriya sifatida iqtisodchi olimlar tomonidan nisbatan to'liqroq yoritib berilganini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, J.Keyns investitsiyalarni "ushbu davrda topilgan daromadning iste'molga ishlatilmagan qismi" deb ta'riflaydi. Ayrim iqtisodchilar tomonidan investitsiyalar daromad (foyda) olish hamda ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik ob'ektlariga va boshqa faoliyat turlariga solinadigan pul mablag'lari, maqsadli omonatlar, aktsiyalar, boshqa turdagi qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar, mashinalar, uskunalar, litsenziyalar, har qanday boshqa mol-mulk yoki mulkiy huquqlardir degan ta'rif beriladi. P.Samuelsion va V. D. Nordxauslar investitsiyalarga: "kelgusida ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun bugungi kundagi iste'moldan voz kechish" — sifatida ta'rif berishadi. Ularning tushunchalariga ko'ra investitsiya moddiy (infratuzilma, asbob-uskunalar, zahiralari) va ijtimoiy (ta'lim yoki inson kapitali, tadqiqot va ishlanmalar, shuningdek sog'liqni saqlash) kapitalga qo'yilmalarni ifoda etadi. Ushbu keltirib o'tilgan ta'rifning afzal tomoni shundan iboratki, mualliflar iste'mol va investitsiya o'rtasidagi teskari bog'liqlik mavjudligini ko'rsatib o'tganlari holda, nomoddiy aktivlarga qo'yilmalarni ham qarab chiqadilar.

Rossiyalik tadqiqotchi A.Lukyanov tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, investitsion xavfsizlik – bu qulay investitsion muxitni yaratilishi va uni saqlanishini ta'minlash, investitsiyadan unumli foydalanish, bo'sh pul mablag'larini jamlanishi va ularni samarali sarflanishi, xorijiy investorlarga bog'liq bo'lmagan holda iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri va portfel investitsiyalarni jalb qilish hamda iqtisodiy resurslarni erkin harakatlanishi holatidir.

O.Svensonning ta'kidlashicha investitsiyaviy xavfsizlik – bu davlatlar iqtisodiyotini ichki va tashqi xavflarga bog'liq bo'lmagan holda rivojlanishi, davlatning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi hamda moliyaviy tarmoqlarni bir maromda rivojlanish holatidir.

Shuningdek, E.Oleynikovning fikriga ko'ra, investitsion xavfsizlik – bu investitsion kompleks va uning institutining barcha segmentlarini ichki va tashqi xavflardan himoyalanganlik holati hisoblanadi. Har bir davlat o'zining investitsion xavfsizligini ta'minlashda, investitsion muhitni yaxshilashi, ya'ni mamlakatda investitsion oqimni ushlab turishi hamda iqtisodiy rivojlanishida past darajali inflyatsiyaga etishish mexanizmini yaratishi lozim. Shundan kelib chiqib, investitsion xavfsizlik sohasidagi milliy manfaat - iqtisodiyotda multiplikator-akselerator samarasini yuzaga keltiruvchi mexanizmlarni yaratish hamda past inflyatsiya asosida iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash imkonini berish darajasidagi investitsiya oqimini saqlab turishdir.

### **Tahlil va natijalar**



Har bir davlat o'zining investitsion xavfsizligini ta'minlashda, investitsion muhitni yaxshilashi, ya'ni mamlakatda investitsion oqimni ushlab turishi hamda iqtisodiy rivojlanishida past darajali inflyasiyaga etishish mexanizmini yaratishi lozim. Shundan kelib chiqib, investitsion xavsizlik sohasidagi milliy manfaat - iqtisodiyotda multiplikator-akselerator samarasini yuzaga keltiruvchi mexanizmlarni yaratish hamda past inflyasiya asosida iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash imkonini berish darajasidagi investitsiya oqimini saqlab turishdir.

Iqtisodiyotda investitsion muhitni baholashda deyarli barcha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda umumqabul qilingan omillar va mezonlar mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:

- tabiiy resurslar va ekologiya holati;
- ishchi kuchi sifati;
- infrastruktura obe'ktlarning rivojlanganlik darajasi;
- siyosiy barqarorlik va fors-major (kutilmagan extimoliy) holatlar;
- makroiqtisodiy barqarorlik: to'lov balansi, davlat tashqi qarzi;
- qonunchilik, iqtisodiy hayotni boshqarish dasturlarining to'liqligi va sifati, liberallik darajasi;
- jinoyatchilik va korrupsiya;
- mulkchilik huquqining himoyalanganligi, korporativ boshqaruv darajasi;
- soliq yuki darajasi;
- bank tizimi va boshqa moliyaviy institutlar sifati, kredit imkoniyatlari;
- iqtisodiyotning ochiqligi;
- iqtisodiyotda monopolizmning darajasi.
- Qolaversa, har bir sohada xavf va tahdidlar mavjud bo'lgani kabi, investitsion faoliyatda xam turli xavf va tahdidlar uchramoqda. Tashqi va ichki omillaridan kelayotgan real va potensial tahdidlar, investitsion xavfsizlikni ta'minlash faoliyatining mohiyatini belgilab beradi. Ular quyidagilar:
- investitsion faollikning pastligi;
- qayta ishlash sohasiga zarar etkazadigan holatda, investitsiyalarning asosan vositachilik va moliyaviy faoliyat hamda qazib olish sohasiga yo'naltirilishi;
- strategik ahamiyatga ega tarmoqlarda nazorat paketining xorijiy investorlarga o'tib ketishi.

Tahdidlar bir jihatdan, muayyan tashqi manbadan maqsadli ravishda yo'naltirilgan, yoki "bozor munosabatlari o'yini" natijasi bo'lishi mumkin. Bunda, mamlakat iqtisodiy holatini keskinlashuviga olib keluvchi tahdidlar xavfli hisoblanadi. Bu kabi ta'sirlar oqibatida aholining turmush sharoiti og'irlashib, oqibatda jamiyat parchalanishi, iqtisodiy va siyosiy tuzilmalari barqarorligiga putur etishi mumkin. Hozirgi kunda investitsion xavfsizlikni ta'minlashda xorijiy davlatlar iqtisodiyotida keng qo'llaniladigan indikatorlar mavjud bo'lib, ular quyidagilar hisoblanadi:

- investitsiyalar xajmini YAIMdagi ulushi (%);
- asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi (%);
- davlat qarzining YAIMdagi ulushi (%);
- qimmatli qog'ozlar bozorida ikkilamchi bozorlar salmog'i;



- mamlakatga kiritiladigan jami investitsiyalar ulushida portfel investitsiyalarning hajmi (%);
- byudjet taqchilligini qoplash manbalarida tashqi manba ulushi (%);
- asosiy fondlarni harakatga keltirish dinamikasi (%);
- moliyalashtirish manbalari orqali asosiy kapitalning investitsiyaviy strukturasi (markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalar mutanosibligi) (%);
- umumiy investitsiya hajmida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarning ulushi (%);
- mulkchilik shakli bo'yicha investitsiyadagi asosiy kapitalning texnologik strukturasi (%);
- mulkchilik shakli bo'yicha investitsiyadagi asosiy kapitalning yo'naltirilganlik strukturasi (%);
- iqtisodiy sohalar bo'yicha investitsiya strukturasi (%);
- ishlab chiqarish ob'ektlari bo'yicha investitsiyalarning nomutanosibligi (%);
- xorijiy kapitallar ishtirokidagi mavjud korxonalar dinamikasi (barcha sohalar bo'yicha) (%);
- tashqi iqtisodiy aylanmada xorijiy kapitallar ishtirokidagi korxonalar ulushi (%);
- xorijiy kapitallar ishtirokidagi korxonalarining tashqi savdo aylanmasidagi investitsiyalar ulushi (%);
- strategik korxonalarda davlat ulushi (barcha asosiy korxonalar bo'yicha) (%);
- investitsiya sohasida noqonuniy xatti-harakatlar dinamikasi, %.

Xorijiy davlatlarda investitsiyaviy xavfsizligi mezonlarini belgilash maqsadida mazkur soha ekspertlari investitsiyaviy xavfsizlikni bir qator chegaraviy qiymatlarini ishlab chiqqanlar. Shundan kelib chiqqan holda, davlat investitsiyaviy xavfsizligini bo'yicha ba'zi indikatorlarning chegaraviy qiymatlarini ko'rib chiqamiz.

Rivojlanayotgan davlatlar tajribasiga ko'ra, horijiy investitsiyalarning YAIMga nisbatan hajmi 25 foizdan oshmasligi kerak. Har bir mamlakat ichki investitsiyalari cheklanganligi sababli o'z iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida chet el kapitalini jalb qiladi. Biroq, bu indikatorning chegaraviy me'yordan ortib ketishi xorijiy investorlarga qaramlikni keltirib chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti ekspertlarining 2017-2022-yillarda O'zbekistonda qulay investitsion muhitni yaratish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar tahliliga ko'ra, 2016-yilda fuqarolari mamlakatimizga vizasiz kirib chiqadigan mamlakatlar soni 9 tani tashkil qilgan. Viza tizimi isloh qilinishi natijasida bunday mamlakatlar soni 2022-yilda 90 tadan ortdi. Shuningdek, investorlar va ularning oila a'zolari uchun alohida "investitsion viza" tizimi joriy qilindi.

Amalga oshirilgan islohotlar o'z natijasini bermasdan qolmadi. Masalan, 2017-2022-yillarda O'zbekiston Xalqaro iqtisodiy erkinlik indeksi umumiy reytingida o'z o'rnini 31 pog'onaga yaxshilab, 148-o'ringan 117-o'ringa ko'tarildi. 2017-yilda iqtisodiyotga kiritilgan jami investitsiyalar hajmi 14 milliard AQSH dollari tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilda bu ko'rsatkich 1,7 barobar oshib, 24 milliard AQSH dollarga etdi.

Bugungi kunda jahonning 50 dan ortiq mamlakati O'zbekistonga barqaror tarzda investitsiya kiritmoqda. Ular iqtisodiyotimizning asosan metallurgiya, energetika, kimyo sanoati, elektrotexnika, mashinasozlik, engil sanoat tamoqlarida faoliyat yuritayapti.




2022 yilda issiqlik ta'minoti tizimini qurish va rekonstruksiya qilish ishlarini amalga oshirish maqsadida jami 320 mlrd so'm mablag' ajratildi. Ushbu mablag'lar hisobidan 13 ta ob'ektda jami 12 ta qozonxona 120,0 km issiqlik tarmog'ini qurish va rekonstruksiya qilindi.

Bugungi kunda O'zbekiston Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki kabi yirik xalqaro moliya institutlari va tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'ygan.

2022 yilga kelib, mamlakat iqtisodiyotiga investitsiya kiritgan mamlakatlar soni 50 dan ortdi. Ularning orasida Rossiya, Xitoy, Turkiya, Germaniya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar etakchilik qilmoqda. Mamlakatga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 2017 yilda 3,3 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2022 yil yakunida ushbu ko'rsatkich uch barobar ortib, 9,8 milliard dollarga etdi.

Buning natijasida xorijiy investitsiyalar va kreditlarning jami investitsiyalardagi ulushi 23,8 foizdan 40,5 foizgacha ortdi. SHu bilan birga, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 2017 yilda 2,5 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilga kelib 3,4 barobar oshib 8,5 milliard dollarga etdi. Ularning jami investitsiyalardagi ulushi esa 17,7 foizdan 35,4 foizgacha oshdi.



**1-rasm. 2017-2022-yillarda O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni<sup>1</sup>**

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni ham yil sayin ortib bormoqda: 2017-yilda 5,5 mingtani tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilga kelib ularning soni 15,8 mingtaga etdi. Buning 6,4 mingtasi qo'shma korxonalar, 9,3 mingtasi to'liq xorijiy korxonalar hisoblanadi.

CHet el kapitali ishtirokidagi korxonalarning 30,5 foizi savdo, 27,5 foizi sanoat, 8 foizi qurilish, 4,8 foizi qishloq xo'jaligi, 4,1 foizi yashab turish va ovqatlanish muassasalari, 2,9 foizi saqlash va tashish, 4,8 foizi aloqa va axborot yo'nalishlarida, 17,4 foizi boshqa sohalarda faoliyat yuritmoqda.

2022 yil 28 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2023- 2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish

<sup>1</sup> <https://daryo.uz/k/2023/02/08/Ozbekistonga-kiritilayotgan-xorijiy-investitsiyalar-hajmi-tahlil-qilindi>



chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-459-sonli qarori qabul qilindi va 2023-2025-yillarda markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarni o'zlashtirishning yig'ma maqsadli ko'rsatkichlari belgilandi.

## 1-jadval

**2023-2025-yillarda markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarni o'zlashtirishning yig'ma maqsadli ko'rsatkichlari, mlrd.so'm<sup>2</sup>**

Moliyashtirish manbalari	2023 — 2025 yillarda jami	shundan:		
		2023 yil	2024 yil	2025 yil
Jami kapital qo'yilmalar	1 214 970	352 717	403 038	459 215
shu jumladan:				
Markazlashgan investitsiyalar:	193 587	55 538	65 622	72 428
Byudjet mablag'lari	83 360	25 886	28 074	29 400
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari	11 170	3 171	3 454	4 545
mln. AQSH dollarida	873	267	271	335
Davlat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	99 057	26 481	34 094	38 483
mln. AQSH dollarida	7 737	2 225	2 675	2 837
Markazlashmagan investitsiyalar:	1 021 383	297 179	337 416	386 788
Korxonalar mablag'lari	326 814	93 930	107 534	125 350
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	197 010	57 696	64 782	74 532
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar	401 466	116 193	133 200	152 073
mln. AQSH dollarida	31 425	9 764	10 452	11 209
Aholi mablag'lari	96 093	29 360	31 900	34 833

Jahon ekspertlari bahosi hamda rivojlangan davlatlar amaliyotiga ko'ra mamlakatlar asosiy kapitaliga kiritilgan investitsiyalar hajmi YAIM nisbatan 22 foizdan past bo'lmasligi kerak. Shuningdek, Rossiyalik iqtisodchi olim S.Glazev tomonidan jahon tajribasini o'rgangan holda ishlab chiqqan metodikasiga asosan ushbu ko'rsatkich 25 foizdan past bo'lmasligi qayd etilgan. Chunki belgilangan ko'rsatkichdan, ya'ni 22-25 foizdan past bo'lsa investitsiyaning naflilik darajasini sekinlashtirishi mumkin. Demak, mazkur indikatorning IO1 chegaraviy qiymatini shartli 22 foiz qilib belgilandi. Buning sababi, Germaniya, Fransiya, Tayvan hamda boshqa ayrim davlatlar ekspertlari tomonidan ushbu ko'rsatkich chegaraviy qiymati 22 foiz qilib belgilangan.

Horijiy ekspertlar tomonidan ta'kidlanishicha, ushbu ko'rsatkich mamlakatning investitsion jozibadorlik darajasini belgilab beradi. Ushbu ko'rsatkichning krizis davriga yaqinlashishi (I1-ga yaqinlashishi) davlatlarda investitsion jozibadorlik darajasini pastligidan

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2023 — 2025 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-459-sonli qarori.



dalolat beradi va oqibatda kerakli investitsiyalar kirmasligi natijasida davlatlar iqtisodiy o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

## **Xulosa va takliflar**

Mamlakatni investitsiya iqlimi holatini belgilaydigan asosiy ko'rsatkich bo'lgan, bevosita xorijiy investitsiyalar oqimining etarli darajada ko'paymaganligini ko'rsatish mumkin. Shu nuqtai nazardan ham xorijiy investitsiyali korxonalar faoliyatini jonlantirish va bevosita xorijiy investitsiyalar oqimini maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish kerak:

1. Mamlakat investitsiya iqlimini yaxshilash va echimini topish maqsadida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar mutaxassislari, hududiy hokimliklarining mutaxassis vakillari, investitsiya imkoniyatiga ega bo'lgan yirik kompaniya va korxonalar rahbarlari hamda respublikaning investitsiyalar sohasidagi etuk olimlari ishtirokida, keng jamoatchilik o'rtasida ochiq muloqot tashkil qilinib, mavjud muammolar oshkoralik bilan har tomonlama muhokama etilishi lozim. Shu asosda masalaga keng jamoatchilkk fikrini jalb qilgan holda, mutaxassislar, olimlar va amaliyotchilar o'rtasida ilmiy va iqtisodiy asoslangan yagona investitsiya siyosatini, shuningdek, qabul qilingan qonun va qarorlarni amalda ishlash mexanizmini ishlab chiqish va hayotiyiligini ta'minlash lozim.

2. Investitsiyalar oqimiga (nafaqat xorijiy, balki ko'p tomonlama ichki investitsiyalar taalluqli) ta'sir qiluvchi omillardan biri sifatida marketing tadqiqotini zaif olib borilayotgani, natijada ko'plab ishlab chiqarilgan mahsulotlar omborlarda qoldiq bo'lib qolayotganligi ko'rsatilmoqda. Bu muammoni faqat investitsiyalarning o'ziga bog'liq qaratilib, echim izlamasdan, aholi va korxonalarining iste'mol qobiliyatini ko'tarish, ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarga iisbatan sog'lom talab darajasini oshirish nuqtai nazaridan qaralishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. Korxonalarining moliyaviy ko'rsatkichlari hamda iqtisodiy indikatorlar haqida holis va ishonchli axborot ta'minoti hamon yaxshi yo'lga qo'yilgani yo'q. Bu masalani hal qilish uchun muqobil va mustaqil nodavlat axborot agentlarini tashkil qilinishi lozim. O'zbekiston investitsion muhitni takomillashtirish xorijiy kapitalni jalb qilish qulay makroiqtisodiy siyosatni shakllantirish bo'yicha ish olib borish muhim hisoblanadi. Buning uchun inflyatsiya darajasini past darajada ushlab turish, inflyatsiyaning investitsion loyihalarni qiymatini o'sishiga ta'sirini kamaytirish, xorijiy investitsiyalar tarkibida bevosita xorijiy investitsiyalar miqdorini keskin ko'paytirishga ko'proq e'tibor qaratish kerak. Investitsiyalarni real ishlab chiqarish sohasiga, birinchi navbatda xom-ashyoni qayta ishlovchi tarmoqlarga jalb etish lozim.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va rivojlantirishda tashqi iqtisodiy omillardan samarali foydalanishga erishish uchun quyidagilarni aytib o'tish joizdir:

1. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ichki muhitni yaxshilash, soliq yukini yanada kamaytirish va soliq tizimini soddalashtirish, xorijiy investitsiyalarni ro'yxatga olish tizimini soddalashtirish.

2. Xorijiy sarmoyadorni qiziqtiruvchi sohalar, obyektlarni aniqlash va ular to'g'risidagi ma'lumotlar majmuini shakllantirish, biznes rejalar va ularni iqtisodiy rivojlantirish loyihalarini ishlab chiqish va iqtisodiy jihatdan manfaatli bo'lgan sohalarga chet el kapitalini jalb qilish.



3. Eksportda qayta ishlangan, tayyor mahsulotlar salmog'ini ko'paytirish, ayniqsa, paxta va qishloq xo'jaligi mahsulotlarni qayta ishlashni oshirish va bu sohaga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish.

4. Import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni rivojlantirish uchun yirik ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari bilan samarali aloqasini ta'minlash zarur, ya'ni yirik korxonalariga yarim tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlarni etkazib beruvchilari bo'lishlari zarur.

## References:

1. Под редакцией Е.А. Олейникова. Основы экономической безопасности (Государство, регион, предприятие, личность) – М.: Бизнес-школа «Интел-Синтез», 1997г. – 288 стр.
2. Гапоненко В.Ф., Маргиев З.В. Экономическая и финансовая безопасность как важнейшая функция государства в современных условиях// Вестник Московского университета МВД России. – 2013г.
3. Глазьев С.Ю. Безопасность экономическая. Политическая энциклопедия. М. Мысль. 1999 год. Т 1.
4. NK Ismailova. [Issues of providing investment security in Uzbekistan](#). Международный журнал гуманитарных и естественных наук. 2019. № 5-4. 122-125стр.
5. NK Ismailova. [Importance of financial security in financial globalization](#). Ekonomika i biznes: teoriya i praktika. 2019. № 4-3. 37-40 str.
6. Ismailova Nasiba Komildjanovna. [PUBLIC DEBT AND FINANCIAL SECURITY OF UZBEKISTAN](#). E Conference Zone. 2022/6/11. 107-109.
7. Sharapova M.A. Iqtisodiy islohotlar sharoitida O'zbekiston Respublikasida sug'urta bozorini rivojlantirish yo'llari. "Science and Education" Scientific journal/ISSN 2181-0842.march2022/volume3 Issue3
8. Iqtisodiy xavfsizlik. Ma'ruzalar matni. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi. 2014 yil.